

**Usmanov O'ktam Xamdamovich**  
*Navoiy viloyati Uchquduq tumani*  
*3 - IDUM huquq fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada huquqiy tarbiyaning ta'lif va tarbiyani tashkil etishdagi o'rni va uning huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishda zaruriy shartligi, huquqiy tarbiyaning ta'lifdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *huquqiy tarbiya, huquqiy tarbiya printsiplari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.*

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy ham «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo momot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» deb bejiz ta'kidlamagan. Chunki «huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat» kabi bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va bir-birini to'ldirib turuvchi ushbu mantiqiy izchillikda va ketma-ketlikda joylashgan o'xshash kategoriyalar jamiyat huquqiy tizimining holatidan darak beradi. Shaxs huquqiy ongi eng avvalo huquqiy tarbiya ta'sirida shakllanadi. Huquqiy tarbiya batartiblilik va intizom darajasining oshishiga, burch hissining mustahkamlanishiga va shaxs huquqiy madaniyatining yuksalishiga yordam beradi.

Huquq sub'ektlari huquqga hurmat bilan qarashlari, amaldagi qonun normalariga rioya etishlari, huquqbuzarlikning har qanday ko'rinishlariga murosasizlik bilan munosabatda bo'lishlari uchun ular avvalo huquqning mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni, kishilar hayotini tashkil etishda ijobjiy ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bunda huquqiy tarbiya asosiy rol o'ynaydi. "Huquqiy tarbiya - bu davlat, uning organlari va xodimlarining, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuqori ko'tarish yuzasidan maqsadga yo'naltirilgan doimiy faoliyatidir36".

Keng ma'nodagi huquqiy tarbiyada gap insonning jamiyatga kirishib ketishi, uning ijtimoiylashuvi haqida ketmoqda. Bu joyda bir xolatga e'tibor berish kerak. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari - davlat apparatida faoliyat olib borayotgan xodimlarning asosiy maqsadi bevosita insonlarga nisbatan huquqiy tarbiya olib borish bo'lmasa-da, ularning faoliyati bilvosita insonlarning huquqiy ongi shakllanishiga ta'sir etadi. Tor ma'noda huquqiy tarbiya - maxsus sub'ektlar tomonidan amalga oshirilib, o'zining fuqarolar, aholi va butun jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini ko'tarish maqsadiga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Bizni fikrimizga huquqiy tarbiya qator maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

- amaldagi qonunchilik, qonuniylik, birinchi navbatda bevosita insonga tegishli bo'lgan shaxsning huquq va erkinliklari haqida yetarli va chuqur bilim va ma'lumotlarga ega bo'lish;

- huquqiy, madaniy qadriyat sifatidagi qonunga insonlarda chinakam hurmat hissini shakllantirish, uning nufuzini ko'tarish, huquqiy nigelizm ko'rinishilari bilan murosasiz kurash olib borish;

- insonlarda huquqiy itoatkorlik hissini tarbiyalash, huquqiy xulqning afzalliklarini aholi ongiga singdirish, huquqbuzarlikka nisbatan salbiy munosabatni mustahkamlash, aholida yuridik faoliyatda ishtirok etishning ko'nikma va yo'llarini shakllantirish;

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, huquqiy tarbiya ko'p qirrali jarayon, bo'lib, u bir qancha shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Pirogolkinaning fikricha, "Bugungi kunda huquqiy tarbiyaning keng tarqagan shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin: ommaviy axborot vositalari yordamida huquqni targ'ib etish; ommabop huquqiy adabiyotlarni chop etish; og'zaki shakldagi huquqiy targ'ibot olib borish; fuqarolarga huquqiy ta'lif berish; kasbiy huquqiy ta'lifni olib borish; ko'rgazmali huquqiy tarbiya olib borish; yuridik amaliyotning ta'siri orqali huquqiy tarbiya olib borish; san'at va adabiyot asarlari ta'siri yo'lli bilan huquqiy tarbiya olib borish"38. Huquqiy ongni shakllantirishda huquqiy tarbiya vositalari katta ahamiyatga ega. Ilmiy va o'quv adabiyotlarida huquqiy tarbiyaning printsiplari ajratiladi. Printsipler bu muayyan bir faoliyat asoslanadigan asosiy qoidalar, bosh g'oyalari majmuidir. Huquqiy tarbiya printsiplari bu - huquqiy tarbiyani amalga oshirishda asoslanadigan, tayaniladigan asosiy, muhim qoidalar, talablar yig'indisidir. Huquqiy tarbiyaning printsiplari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- huquqiy tarbiyaning ijtimoiy hayot, jumladan yuridik faoliyat va yuridik amaliyot bilan uzviy bog'liqligi;
- huquqiy tarbiyani ilmiyligi, uning fan va yuridik bilimlar yutuqlariga asoslanishi;
- qonuniylikni mustahkamlashga, qonunning obro'sini ko'tarishga, amaldagi qonunlarni bilishga va ulardan foydalana bilishga yo'naltirilganligi;
- huquqiy tarbiyaning tushunarli va obrasliligi.

Huquqiy tarbiya vositalari ichida huquqiy ta'lif alohida o'rinn tutadi. Huquqiy ta'lif, aytish mumkinki, huquqiy ongning, huquqiy madaniyatning, huquqiy davlatning tayanchidir. Huquqiy davlat barpo etish uchun huquqiy tarbiyani, jumladan huquqiy ta'lifni takomillashtirish vazifasi ustuvor vazifamizga aylangan. Bu ikki huquqiy hodisani, ta'sir etish ob'ekti, yo'nalishiga qarab birmuncha farqlash mumkin bo'ladi. Tarbiya, jumladan huquqiy tarbiya asosan inson ongingin hissiy-irodaviy, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashiga ta'sir etadi. Ta'lif, jumladan huquqiy ta'lif esa, inson ongingin ratsional jihatiga axborot-tanishtirish mazmunida ta'sir etadi. SHu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Tarbiyaning inson ongiga, uning hissiy-irodaviy va dunyonidagi bilish jihatiga ta'siri o'z-o'zidan uzil-kesil shakllanib qolmaydi, tarbiya natijasida olingan bilimlar, ma'lumotlar borliq bilan bog'liq, u chinakam amalda mavjud bo'lgan huquqiy amaliyot bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtiriladi.

"Tarbiya va ta'lif tarbiyalanuvchilarga qanchalik batafsil va ishonarli tarzda qadriyatlar, jumladan demokratik qadriyatlar haqida bilim berilmasin, insonlarning ongiga ta'sir etmasin, basharti amalda, real hayotda ular amalga oshmagani bo'lsa, bu holda, insonda demokratik qadriyatlarga hurmat uyg'otish mushkul bo'ladi".

Qonuniylik haqida, uning ijtimoiy ahamiyati haqidagi bilim va ma'lumotlar real hayotda qonuniylikning ijobiy daraja ko'rsatkichi bilan mustahkamlanmasa, uning qadriyat sifatida insonlar ongida chuqr singishiga va harakat dasturiga va ichki zaruriy ishonchiga aylanishiga umid bog'lash qiyin. Yoki, davlat hokimiyatini tashkil etishning oqilona, sinalgan tamoyili bo'lgan "hokimiylarning taqsimlanishi va ayni paytda o'zaro harakati" haqida juda ko'p fikrlar va jahon amaliyotidan misollar keltirish mumkin. Biroq, bu printsip har bir mamlakatda to'la amalga oshmas ekan, uning muhim demokratik qadriyat sifatida insonlar huquqiy ongidan joy olishi dargumon. SHu bois huquqiy tarbiya ijtimoiy amaliyot va real hayot bilan hamohang bo'lganida u insonlarning ongi va qalbidan tegishlicha joy oladi va ularning hulq-atvoriga, dunyoqarashiga ta'sir etadi. Basharti demokratik qadriyatlar faqat Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan, siyosatdonlarning va'dalarida e'lon etilgan bo'lsa, amalda yo'q qadriyatlar ta'lim beruvchilar tomonidan qayta-qayta ukdirilsa-da, ular sub'ekt ongiga samarali ta'sir eta olmaydi".

Yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ijtimoiy hayotning hamma sohalarida qo'yilayotgan talablarga monand bo'lishi taqozo etiladi. Bunday talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Boymirzayeva Raximaxon. "Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagoglarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali usullari". Uslubiy qo'llanma.Namangan.

- uzlusiz, o'zaro bog'liq, zamon talablariga javob beradigan, bakalavriat va magistraturada o'rganiladigan fanlarni aniq ajratib beradigan, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari qamrab oladigan yuridik ta'lim tizimini tashkil etish;

- davlat, sud-huquq, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va maqsadlarini aks ettiruvchi o'quv dasturlari, o'quv - uslubiy materiallarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish;

- ta'lim beruvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash sifatini oshirish, ularning pedagogik mahoratini yuksaltirib beruvchi samarali tizimni uzlusiz tizimni yaratish;

- o'quv jarayonini zamonaviy o'quv-uslubiy, moddiy texnika bazasini yaratish, kadrlar tayyorlash tizimida zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullarini keng qo'llash sharoitini shakllantirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimida modulli o'quv jarayoni yo'lga qo'yilgan barcha yo'nalishlarda, jumladan, yuridik ta'limni yuridik amaliyot bilan bog'lash masalasi ham yuridik ta'limni takomillashtirishning dolzarb masalalaridan biridir. Yuridik kadrlar tayyorlashni ixtisoslashtirish, bir tomondan, tegishli o'quv fanlarini chuqr o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan esa, yurisprudentsiya ixtisosliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashga mas'ul bo'lgan barcha o'quv yurtlari uchun majburiy bo'lgan tayanch yuridik fanlar ro'yxatini belgilab qo'yishni o'z ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Boymirzayeva Raximaxon. "Talim tizimida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish'Ulmiy maqola.Namangan viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi "Ta'llim-tarbiya tizimini isloh qilinishining hozirgi bosqichida xalqaro baholash dasturlari (pirls, pisa, timss, talis) ning o'rni va ahamiyati" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Namangan 28. 09. 2021 yil.

2.Boymirzayeva Raximaxon. "Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagoglarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali usullari"USLUBIY QO,LLANMA.Namangan.NVXTXQTMONM.2021.

3. Правосознание и правовая культура. / Теория государства и права. Под. ред. Пиголкина. -Москва: Юрайт-Издат, 2006.